

O'ZBEK TILIDA NUTQIY AKTLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Faxriddinova Sitora Oybek qizi

*Namangan davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistranti e-mail:faxriddinovasitora1202@gmail.com tel: +99893-256-23-12*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi nutqiy aktlarning amaliy va pragmatik jihatlari, ularning milliy- madaniy omillar bilan bog'liqligi xorijiy tillar bilan qiyosiy tahlil etilib,turli amaliy misollar yordamida yoritiladi. Bu esa nutqiy aktlar nazariyasini milliy til materiali asosida chuqur va izchil tadqiq etish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Nutqiy akt, mentalitet, illokutsiya, prosodiya,perlokutsiya,pragmatik ma'no,kommunikatsiya*

Аннотация: *В данной статье анализируются практические и прагматические аспекты речевых актов в узбекском языке, их связь с национальными и культурными факторами, а также освещаются эти аспекты на различных практических примерах. Это позволяет провести глубокое и последовательное изучение теории речевых актов на основе материала национального языка.*

Ключевые слова: *речевой акт, менталитет, иллокуция, просодия, перлокуция, прагматическое значение, коммуникация*

Abstract: *This article analyzes the practical and pragmatic aspects of speech acts in the Uzbek language, their relationship with national and cultural factors, and sheds light on them using various practical examples. This allows for a deep and consistent study of the theory of speech acts based on the material of the national language.*

Keywords: *Speech act, mentality, illocution, prosody, perlocution, pragmatic meaning, communication*

KIRISH

Har bir xalqning nutqiy aktlar tizimi o'sha xalqning axloqiy va madaniy me'yorlar, azaliy qadriyatlari, an'alarining aksi o'laroq shakllanadi. O'zbek tilida nutqiy aktlar ko'pincha, o'zaro hurmat va muloyimlik prinsiplariga asoslanadi. Shuningdek, to'g'ridan – to'g'ri, keskin murojaat shaklidan ko'ra, bilvosita murojaat shakli faol qo'llanadi. Bu esa ziddiyatli vaziyatlarni oldini olish va samarali kommunikatsiya muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Milliy madaniyat tildagi leksik birliklar, grammatik shakl va qoidalar orqali emas, nutqiy aktlar orqali ijtimoiy va madaniy ko'rinish kasb etadi. O'zbek tilida nuqtiiy aktlar shunchaki muloqot mexanizmi sifatida namoyon bo'libgina qolmay, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini belgilashda, o'zaro munosabatlarni muvozanatlashtirishda va axloqiy me'yorlarni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, hurmat va ijtimoiy mavqeni ifodalash o'zbek tilidagi nutqiy

aktlarning funksional vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda yosh, maqom, qarindoshlik darajasi e'tiborga olinadi. Fikrimizni aniqroq misol yordamida tahlil qilsak:

“Necha kundan beri tuz totmadingiz, balki och qolgandirsiz?”

Ushbu gap lokutsion jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, illokutsion jihatidan hurmat va g'amxo'rlikni ifodalab kelmoqda. Gap tarkibidagi “-siz” qo'shimchasi esa ijtimoiy masofani saqlagan holda tinglovchiga nisbatan hurmat munosabatini ifodalamoqda. Ingliz tilida esa aynan xuddi shu gap quyidagicha shaklda bayon etiladi: “Are you hungry?”

Mazkur gap grammatik jihatidan so'roq gap bo'lib, uning illokutsion maqsadi ham aynan tinglovchidan ma'lum axborotni so'rashga qaratilgan. Ahamiyatlisi, gap mazmunidan hech qanday hurmat yoki g'amxorlik munosabati anglashilmaydi. Buni esa ingliz nutqiy madaniyatining o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagi gaplarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz tilida shakl va mazmun umumiylik kasb etib, nuqtning illokutsion va perlokutsion ta'siri teng nisbatda. O'zbek tilidagi gapda esa lokutiv jihatdan gap so'roq shaklda bo'lsa ham perluktiv natija g'amxorlikni ifodalab, nutq ijtimoiy muloyimlikka yo'naltirilgan.

O'zbek tilidagi nutqiy aktlarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, bir xil illokutsion maqsad turli ijtimoiy rollarda turlicha ma'noni bildirib kelishi mumkin. Bunda muloqot ishtirokchilarining yoshi, ijtimoiy mavqei alohida o'rin tutadi. Masalan:

1. “Avval uy ishlarini qilib ol, dugonalarim bilan keyin o'ynaysan”

2. “Uy ishlarini qilib bo'ldim, agar ruxsat bersangiz dugonalarim bilan o'ynamoqchi edim”

Har ikki gapda ham nutqiy aktning maqsadi – harakatni amalga oshirish. Ammo so'zlovchining ijtimoiy maqomi (ota-ona – farzand) , ya'ni nutq kimga qarata aytilgani, nutq vaziyati uning illokutsion kuchiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Birinchi gapda qo'llangan “ qilib ol” imperativ fe'li , “avval” va “keyin” so'zlari nutqning illokutsion kuchini oshirib, buyruqning ochiq va bevosita shaklda ifodalab kelgan qat'iy direktiv akt hisoblanadi. Bunda perlokutsion natija ham aniq, ya'ni tinglovchi (farzand) avval “ishlarni bajaradi”, keyin esa “o'ynaydi”. Ikkinchi gapda esa illokutiv kuch “yumshagan”, nutqiy akt esa bilvosita tarzda amalga oshmoqda. Gap tarkibidagi “agar ruxsat bersangiz” jumlasini tinglovchi (ota yoki ona)ga nisbatan hurmat va ijtimoiy iyerarxiyani ifodalab kelmoqda. Shuningdek nutqda prosodik vositalar, ya'ni iltimos va muloyimlik ohangi ustunlik qiladi. Shu sababli tinglovchini harakatni amalga oshirish ehtimoli ortadi. Boshqacha aytganda, nutqning ijobiy perlokutsion natijasi kafolatlanadi.

Umuman olganda, bilvosita nutqiy aktlar orqali so'zlovchi o'z niyatini ochiq ifodalamaydi. Bu esa muloqotdagi qarama-qarshilikni kamaytiradi.

Xalqimiz azaldan muloqotda odob, muloyimlik va hurmat tamoyillariga tayanadi. Xususan, tanbeh berish yoki tanqid qilishda ham suhbatdoshning ko'ngliga og'ir botmaydigan, uni kamsitmaydigan yoki hijolatga qo'ymaydigan bilvosita ifoda uslubidan foydalaniladi. Aslida, bu aktlar kamchilikni ko'rsatish, mulohaza va taklif

bildirish maqsadida aytiladi. Lekin turli tillarda, jumladan xorijiy tillarda turlicha ifodalanadi va qabul qilinadi. Bu borada o'zbek va xorijiy tillar o'rtasida katta tafovut mavjud. Quyida aniq amaliy misollar yordamida qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Dastlab, o'zbek nutqiy konteksti misolida ko'rib chiqamiz:

“Dars jarayonida interaktiv metod va kompyuter texnologiyalaridan foydalansangiz, yaxshi bo'lardi”

Ushbu nutqiy akt bir qarashda maslahatdek tuyilsa-da, uning ichki pragmatik ma'nosi biroz murakkab. Ya'ni lokutiv jihatdan so'zlovchi tinglovchiga nisbatan muqobil variant taklif qilyapti, maslahat beryapti. Illokutiv jihatdan esa ishga nisbatan tahbeh yoki tanqid munosabati mavjud. Perlokutsion jihatdan esa suhbatdosh kamchiliklarini qayta ko'rib chiqishga intiladi va xatolaridan xulosa chiqaradi.

Bu yerda bilvosita murojaat shakli tanbehning keskinligini kamaytirib, nutqning illokutsion kuchini yashirgan hamda uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Shu sababli ham o'zbek nutqiy madaniyatida bilvosita nuqtaiy aktlar eng faol qo'llanuvchi aktlardan biri hisoblanadi. Chunki bilvosita aktlarda nafaqat tinglovchi, balki so'zlovchining o'zini ham ijtimoiy obro'siga putur yetmaydi. Bu esa muloqotdagi tushunmovchilik va ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xorijiy tillar, xususan, ingliz tilida tanbeh yoki tanqid akti aksariyat hollarda ochiq va aniq shaklda bayon qilinadi. Masalan:

“You have committed serious economic errors in the project”

Mazkur gapdagi “have committed” fe'li hamda “errors” so'zi tanqid aktining aniq va ochiqdan-ochiq ifodalab kelmoqda. Mazkur gapda illokutsion kuch yashirilmaydi, tanqid oshkora aytiladi va nutqiy akt aniq natijaga yo'naltiradi. Bu ingliz nutqiy madaniyatidagi induviduallik va aniqlik tamoyillari bilan bog'liq. Bunday ifodalar o'zbek tilida qo'pol yoki o'ta keskin shaklda qabul qilinishi mumkin. Chunki bilvositalik va yumshatish vositalari o'zbek nutqiy madaniyatida hurmat, odob va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda keng qo'llanadi. Aksincha, ingliz tilida esa bilvosita ifodalash uslubi yanglish tushunilishi yoki perlokutsion samara kutilganidek bo'lmasligi mumkin. Ushbu farqlar nutqiy aktlarning milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini, har bir xalq va millatning o'ziga xos muloqot me'yorlariga ega ekanini yana bir tasdiqlaydi.

Nutqiy aktlar nafaqat kundalik hayotimizda faol qo'llanadi, balki tilimizdagi badiiy asarlarda qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni ochishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, o'zbek adabiyotidagi asarlarda qahramonlarning shaxsiyati va nutqiy vaziyatlarni ochib berishda sharqona tarbiya, madaniyat, so'zlashuv odobi va milliy mentalitet markaziy o'rinni egallaydi. Fikrimizni barchaga ma'lum va mashhur bo'lgan, o'zbekona qadriyat va an'analarni betakror tarzda ochib berolgan Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asaridan olingan quyidagi parcha misolida yana-da aniq ifodalasak:

“- O'g'lim hali sen eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq”.

“-Aqllik kishilarning o‘g‘illari ustidan qilg‘on ishlari noma‘qul bo‘lmas”, dedi. Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va anima deb javob qilishini bilmay qoldi”⁹

Mazkur romanda qahramonlar nutqi ota-bola, kata –kichik munosabatlarida bilvositalikka tayanadi, ya‘ni buyruq yoki e‘tiroz ochiqdan –ochiq keskin tarzda ifoda etilmaydi.

Yuqoridagi dialogda ham Yusufbek hoji o‘g‘liga to‘g‘ridan to‘g‘ri “biz seni unashtirib qo‘ydik” deyish o‘rniga, o‘z fikrini bilvosita tarzda va muloyimlik bilan ifodalmoqda.

O‘z o‘rnid, Otabek ham ota- onasining uning ustidan “qilgan ishlari”ni yaxshi bilsa-da, ularga ochiq e‘tiroz bildirmasdan, fikrini hurmat va odob bilan bayon qilishi, so‘z tanlashdagi mahorati bilan otasini-da biroz o‘ylantirib qo‘ydi.

Bu esa nuqtning perlokutsion ta‘siri qanchalik kuchli ekanini ko‘rsatadi. Garchi, Otabek sog‘lom fikrli, mustaqil shaxs bo‘lsa-da, ota-ona qarshisida itoatkorlik va sharqona odob bilan muomala qiladi, madaniy chegarani buzmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №.01. – P.18.
2. Buzrukova M. O‘zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
4. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society –1976. – Vol. 5 – №1. – P.1. Searle J. Speech Acts. - Cambridge, 1969.
5. Mahmudov N. Pragmatika va nutq madaniyati. - Toshkent, 2015.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilshunosligi masalalari. - Toshkent, 2008.
7. Ashurova D. Diskurs va kontekst nazariyasi. - Toshkent, 2012.
8. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 2000-2010.
9. Yusupov B. Nutq aktlari nazariyasi va badiiy matn. - Toshkent, 2018

⁹ A.Qodiriy. O‘tgan kunlar. - Toshkent.: “Sharq”, 2024, 310 B.